

SOG'LIQNI SAQLASH BO'YICHA MOLIVAVIY YORDAM SIYOSATINING SODDA TILDA QISQACHA BAYONI

Umumiy ma'lumot

Bon Secours Mercy Health o'z jamoalari, ayniqsa, kambag'al va ehtiyojmand qatlamlar salomatligini yaxshilashdek oliy maqsadidan hamda Isoning shifobaxsh da'vati ruhidan kelib chiqib o'z bemorlariga moliyaviy yordam ko'rsatish majburiyatini olgan. Bu Bon Secours Mercy Health Sog'liqni saqlash bo'yicha moliyaviy yordam (HFA) siyosatining qisqacha mazmuni.

Moliyaviy yordamning mavjudligi

Moliyaviy yordam olish huquqi bemor yoki uning kafilining barcha mavjud resurslardan foydalanilgandan va barcha mavjud yordam dasturlari baholangandan so'ng to'lovni amalga oshirish qobiliyatiga qarab belgilanadi. Moliyaviy yordam Bon Secours Mercy Health kasalxonalari (va ayrim boshqa tibbiy xizmat ko'rsatuvchi provayderlar) tomonidan taqdim etiladi, ushbu yordam Bon Secours Mercy Health kasalxonasi xizmat ko'rsatadigan hududda yashovchi, sug'urtalanmagan yoki to'liq sug'urtalanmagan hamda oilaviy daromadi Federal qashshoqlik mezonidan to'rt baravar oshmaydigan bemorlarga ko'rsatiladigan shoshilinch va boshqa zarur tibbiy xizmatlar uchun mo'ljallangan.

Muvofiqlik talablari

Moliyaviy yordam odatda umumiy uy xo'jaligi daromadining FPG asosida belgilangan o'zgaruvchan shkalasi bo'yicha aniqlanadi. Bizning siyosatimiz bo'yicha moliyaviy yordam olish huquqiga ega bo'lgan va daromad darajasi 200% FPG yoki undan past bo'lgan shaxslar bepul tibbiy yordam oladilar. Daromad darajasi mos ravishda 201% dan 300% gacha bo'lgan va 301% dan 400% gacha bo'lgan shaxslar, siyosatda belgilanganidek, o'zgaruvchan shkala asosida chegirmali yordam oladilar. 201%–300% FPG va 301%–400% FPG daromad darajalari uchun aniq foiz chegirmalari har yili har bir bozor uchun narxlar ro'yxati (charge master) dagi o'zgarishlarga muvofiq yangilanadi.

HFA siyosati bo'yicha moliyaviy yordam olish huquqiga ega bo'lgan hech bir shaxsdan shoshilinch yoki boshqa tibbiy zarur yordam uchun odatda bunday yordamni qoplaydigan sug'urtaga ega bo'lgan shaxslardan undiriladigan summadan ko'proq haq olinmaydi. Agar shaxsning parvarish uchun to'lash uchun yetarli sug'urta qoplamasi yoki aktivlari bo'lsa, u moliyaviy yordam olish huquqiga ega emas deb hisoblanishi mumkin. HFA siyosatida tasvirlangan moliyaviy yordam chegirmalaridan biriga ega bo'lmagan sug'urtasiz bemorlar uchun Bon Secours Mercy Health kasalxona to'lovlari avtomatik (o'z hisobidan to'laydigan) chegirma taqdim etadi. To'liq tushuntirish uchun to'liq HFA siyosatiga qarang.

Ariza berish jarayoni haqida

HFA siyosatimiz bo'yicha moliyaviy yordam olish uchun ariza berish jarayoni quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- HFA ariza shaklini to'ldirish va kerakli tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilish.
 - Sizga taqdim etiladigan yordam darajasini aniqlash uchun biz sizning daromadingiz va oila a'zolaringiz sonini ko'rib chiqamiz. Yuqorida ko'rsatilgan FPG asosida biz o'zgaruvchan shkaladan foydalanamiz.
 - Biz sizdan avval sizning parvarishingizni qoplaydigan biron bir sug'urta imtiyozlari turiga (masalan, ishchi kompensatsiyasi, avtomobil sug'urtasi va boshqalar) ega bo'lish huquqini o'rganishingizni talab qilamiz. Sizga kerakli resurslarni topishda yordam bera olamiz.
- Sizga HFA siyosatimiz bo'yicha moliyaviy yordam olish huquqiga ega ekanligingizni aytish uchun biz siz bilan bog'lanamiz.
- Biz sizga HFA siyosatimiz doirasida qamrab olinmagan qolgan har qanday to'lovlar yoki hisob-kitoblar uchun to'lov rejasini tuzishda yordam bera olamiz.
 - To'lov rejasi sizning moliyaviy ahvolingizni hisobga olib, siz boshqarishingiz mumkin bo'lgan to'lovlarni belgilaydi.

Ma'lumotni qayerdan olish mumkin

Siz HFA siyosatimiz va HFA ariza shaklimiz nusxasini, shuningdek, moliyaviy yordam uchun ariza berish jarayoni haqidagi ma'lumotni quyidagi usullar orqali olishingiz mumkin: (i) www.bsmhealth.org/financial-assistance, www.mercy.com/financial-assistance va www.fa.bonsecours.com veb-saytlarimizga tashrif buyurib; (ii) Bon Secours Mercy Health tashkilotining Bemorlarga moliyaviy xizmat ko'rsatish bo'limiga 1-855-732-0138 telefon raqami orqali bog'lanib; (iii) Mercy Health, Public Benefits bo'limi, PO Box 631774, Cincinnati, OH 45263-1774 manziliga so'rov yuborib; yoki (iv) shifoxonalarimizning istalganida moliyaviy maslahatchilarimiz bilan shaxsan uchrashib (muassasalar va manzillarning to'liq ro'yxati bilan HFA siyosatining to'liq matnida tanishishingiz mumkin).

Biz Bon Secours Mercy Health tomonidan xizmat ko'rsatiladigan va ingliz tilini cheklangan darajada biladigan barcha muhim aholi guruhlariga HFA siyosatimiz, ariza shakli va ushbu xulosa nusxalarini ushbu aholi guruhlari so'zlashadigan asosiy tillarga tarjima qilish orqali xizmat ko'rsatamiz. Shuningdek, biz tarjima vositalari, tarjima bo'yicha qo'llanmalar taqdim etishni yoki malakali ikki tilda so'zlashuvchi tarjimonlar yordamini taklif qilishni tanlashimiz mumkin.